Raqamli muhitda milliy psixologik qiyofaning kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlari

Xaydarov Abduvohid Ahmadali o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti psixologiya yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: **Atadjanov Mamirjon Yusupovich**
Psixologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Maqolada milliy psixologik qiyofa tushunchasi va uning kognitiv, emotsional hamda xulq-atvor komponentlari raqamli muhit va sun’iy intellekt ta’siri sharoitida tahlil qilinadi. Xorijiy va o‘zbek mualliflarining ishlari adabiyotlar tahlili, taqqoslash va umumlashtirish metodlari asosida o‘rganilgan. Milliy xarakter, ustanovka tuzilishi va madaniy «men» konsepsiyalari doirasidagi ta’riflar qiyosiy jadvalda keltirilgan. Har bir komponentning mazmuni hamda uning virtual muhitda namoyon bo‘lishi umumlashtirilgan. Global raqamli kontent va sun’iy intellekt tizimlarining milliy o‘zlikka ta’siri, milliy qiyofani saqlash va zamonaviy identifikatsiyani uyg‘unlashtirish masalalari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: milliy psixologik qiyofa, milliy xarakter, etnik o‘zlik, kognitiv komponent, emotsional komponent, xulq-atvor komponenti.

Kirish. Har bir xalq o‘ziga xos tafakkur tarzi, his-tuyg‘ularni ifodalash usuli va xulq-atvor me’yorlariga ega. Psixologiyada bu majmua «milliy psixologik qiyofa» yoki «milliy xarakter» deb ataladi. U shaxs o‘zini anglash jarayonining muhim tayanchi bo‘lib, insonga «men kimman?» degan savolga javob topishda yordam beradi. Bugungi kunda bu savolga javob izlash jarayoni tobora ko‘proq raqamli makonda — ijtimoiy tarmoqlar, global kontent platformalari va sun’iy intellekt bilan muloqot jarayonida kechmoqda.

Yurtimizda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. «O‘zbekiston — 2030» strategiyasida raqamli transformatsiya bilan bir qatorda inson qadri, yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash va milliy qadriyatlarni asrash muhim maqsadlar sifatida belgilangan [1]. Demak, raqamli taraqqiyot va milliy o‘zlikni asrash bir-biriga zid emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi vazifalar sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga globallashuv yangi psixologik vaziyatni yuzaga keltirmoqda. Global axborot oqimi sharoitida ayniqsa yoshlarda «ikki madaniyatli» o‘zlik shakllanadi: shaxs bir vaqtning o‘zida mahalliy va global madaniyatga mansublikni his qiladi. Dj. Berri madaniyatlar to‘qnashuvida shaxs integratsiya, assimilyatsiya, separatsiya yoki marginallashuv strategiyalaridan birini tanlashini asoslagan [2]. Raqamli muhitda bu jarayon jismoniy migratsiyasiz, har kuni ekran orqali yuz bermoqda.

Sun’iy intellekt bu jarayonga yangi omil sifatida qo‘shildi. Yirik til modellari asosan ingliz tilidagi matnlarda o‘qitilganligi sababli, ularning javoblari ko‘proq

ISSN: 3060-4648 | www.eyib.uz

g‘arb madaniyatiga xos psixologik xususiyatlarni aks ettirishi aniqlangan [3]. Bu sun’iy intellekt bilan muntazam muloqot qiluvchi yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va o‘zini anglashiga sezilmas ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini anglatadi. Shu bois milliy psixologik qiyofaning tarkibiy qismlarini aniq belgilash va ularning raqamli muhitdagi o‘zgarishini o‘rganish dolzarb vazifadir.

Metodlar. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, unda uchta o‘zaro bog‘liq metoddan foydalanildi. Adabiyotlar tahlili. Milliy xarakter, etnik o‘zlik, madaniyatlararo psixologiya, ijtimoiy ustanovka tuzilishi, globallashuv va sun’iy intellektning madaniy jihatlariga oid xorijiy va o‘zbek tilidagi manbalar tanlab olindi. Taqqoslash metodi. Manbalardagi milliy psixologik qiyofa ta’riflari uch mezon bo‘yicha qiyoslandi: a) qaysi yondashuvga mansubligi; b) qaysi tarkibiy qismlar ajratilganligi; v) kognitiv, emotsional va xulq-atvor jihatlariga qanday o‘rin berilganligi. Umumlashtirish metodi. Taqqoslash natijalari asosida milliy psixologik qiyofaning uch komponenti mazmuni aniqlashtirildi va ularning raqamli muhitda namoyon bo‘lishi bo‘yicha xulosalar shakllantirildi.

Natijalar. Adabiyotlar tahlili milliy psixologik qiyofaga oid ta’riflarni to‘rt yondashuv doirasida guruhlash mumkinligini ko‘rsatdi. 1. Milliy xarakter yondashuvi. A. Inkeles va D. Levinson milliy xarakterni ma’lum jamiyat kattalarida nisbatan barqaror va eng ko‘p uchraydigan shaxsiy xususiyatlar majmui sifatida ta’riflaydi [4]. Ular unda o‘ziga va boshqalarga munosabat, hokimiyatga munosabat hamda nizo va his-tuyg‘ularni boshqarish usullarini ajratadi. Shu tariqa bu ta’rifda kognitiv, emotsional va xulq-atvor jihatlari bir butun holda namoyon bo‘ladi. 2. Ustanovkaning uch komponentli tuzilishi. M. Rozenberg va K. Xovlandning klassik modeliga ko‘ra, har qanday ijtimoiy ustanovka kognitiv (bilim va tasavvurlar), affektiv (his-tuyg‘u va baholar) va xulq-atvor (harakatga moyillik) komponentlaridan iborat [5]. Etnopsixologiyada ushbu model milliy o‘zlik va milliy qiyofani tahlil qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi: kognitiv qism o‘z xalqi haqidagi bilim va tasavvurlarni, affektiv qism unga mansublik hissi va uni baholashni, xulq-atvor qismi esa shu asosda yuzaga keladigan faollikni ifodalaydi. 3. Madaniy «men» yondashuvi. X. Markus va Sh. Kitayama madaniyat shaxsning «men» konsepsiyasini shakllantirishini ko‘rsatadi: ba’zi madaniyatlarda «mustaqil men», boshqalarida esa «o‘zaro bog‘liq men» ustun bo‘ladi va bu tafovut idrok, hissiyot va motivatsiyada namoyon bo‘ladi [6]. «O‘zaro bog‘liq men» kollektivistik madaniyatlarga xos bo‘lib, unda shaxs o‘zini avvalo oila, jamoa va boshqalar bilan munosabatlari orqali anglaydi. 4. Milliy-ma’naviy yondashuv. O‘zbek ma’rifatparvari A. Avloniy milliy xarakterni «yaxshi xulqlar» va «yomon xulqlar» tizimi orqali ochib beradi hamda tarbiyani millat taraqqiyotining asosi deb biladi [7]. Uning qarashlarida xulq tug‘ma emas, balki oila va jamiyatdagi tarbiya orqali shakllanadigan sifat sifatida talqin qilinadi.

2-jadval. Milliy psixologik qiyofa komponentlari va ularning raqamli muhitda namoyon bo‘lishi

Komponent	Mazmuni	Raqamli muhitda namoyon bo‘lishi
Kognitiv	Milliy o‘zlikni anglash; xalq tarixi, tili va qadriyatlari haqidagi bilimlar; o‘z va boshqa xalqlar haqidagi tasavvurlar; yaxlit, kontekstga tayanuvchi tafakkur	Milliy kontentni izlash va baham ko‘rish; global axborot asosida o‘z madaniyatini qayta baholash; sun’iy intellekt javoblaridagi madaniy talqinlarni qabul qilish yoki tanqidiy baholash
Emotsional	Millatga mansublik va g‘urur hissi; ona yurtga mehr; hayo, andisha, mehr-oqibat kabi madaniy his-tuyg‘u me’yorlari	Onlayn hamjamiyatlarda milliy g‘ururni ifodalash; virtual muloqotda andisha me’yorlarining susayishi yoki saqlanishi; sun’iy intellekt bilan muloqotdagi hissiy ochiqlik
Xulq-atvor	Urf-odat va an’analar; kattalarga hurmat, mehmondo‘stlik, jamoaviylik (hashar, mahalla); muloqot odobi	Raqamli muloqot odobi (murojaat shakli, salomlashish); onlayn xayriya va jamoaviy tashabbuslar; virtual o‘zini taqdim etishda milliy va global andozalar uyg‘unligi

Muhokama. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, mualliflar turli atamalardan foydalansa-da, ularning aksariyati milliy psixologik qiyofani bilish, his qilish va harakat qilish birligi sifatida talqin qiladi. Rozenberg va Xovlandning uch komponentli modeli bu umumiylikni aniq ifodalaydi [5]. Etnopsixologiyada u milliy o‘zlikka tatbiq etilgan, madaniy «men» tadqiqotlarida esa idrok, hissiyot va motivatsiyadagi madaniy tafovutlar asoslab berilgan [6]. Bizningcha, uch komponentli yondashuv milliy qiyofani o‘rganishda eng maqbul nazariy asos hisoblanadi, chunki u mavhum «milliy ruh» tushunchasini o‘lchanadigan psixologik tarkibiy qismlarga ajratish imkonini beradi. Uch komponentli yondashuvni madaniy «men» konsepsiyasi bilan birgalikda qo‘llash milliy qiyofani yanada aniqroq tavsiflash imkonini beradi [5; 6]. Masalan, o‘zbek yoshlarida «o‘zaro bog‘liq men» kognitiv darajada o‘zini oila va mahalla a’zosi sifatida anglashda, emotsional darajada kattalar oldidagi andisha va oilaviy sharaf hissida, xulq-atvor darajasida esa muhim qarorlarni oila bilan maslahatlashib qabul qilishda namoyon bo‘ladi. Shu tariqa bitta madaniy xususiyat uchala komponentda o‘zaro bog‘liq holda ifodalanadi.

Shu bilan birga, milliy psixologik qiyofani o‘zgarmas va barcha a’zolarga bir xil xos xususiyatlar to‘plami sifatida tushunish ilmiy jihatdan noto‘g‘ri. Inkeles va Levinson ta’rifidagi «modal» tushunchasining o‘zi xususiyatlar faqat eng ko‘p uchrashini, ammo har bir shaxsda albatta mavjud emasligini anglatadi [4]. Shu bois milliy qiyofa haqidagi bilimlarni stereotiplarga aylantirmaslik, ularni guruh ichidagi xilma-xillikni hisobga olgan holda qo‘llash zarur. O‘zbek xalqining milliy psixologik qiyofasida kollektivistik madaniyatlarga xos «o‘zaro bog‘liq men» xususiyatlari yaqqol ko‘rinadi [6]. Oila va mahallaga yo‘naltirilganlik, kattalarga hurmat, andisha va mehr-oqibat bunga misoldir. Avloniy tomonidan ta’riflangan sabr, hayo, g‘ayrat va vatanparvarlik kabi fazilatlar esa bu qiyofaning milliy-axloqiy asosini tashkil etadi [7]. Bu xususiyatlar avloddan-avlodga oila va mahalla orqali uzatilib kelgan. Raqamli muhit esa bu uzatish mexanizmini o‘zgartirmoqda. Muallif fikricha, uch komponent raqamli ta’sirga turlicha javob beradi. Kognitiv komponent eng ochiq: global kontent va sun’iy intellekt orqali yoshlar o‘z madaniyatini tashqi nigoh bilan ko‘ra boshlaydi. Bu tanqidiy fikrlashni rivojlantirishi ham, o‘z madaniyatini kam baholashga olib kelishi ham mumkin. Emotsional komponent nisbatan barqaror: milliy g‘urur va mansublik hissi ko‘pincha onlayn muhitda

kuchayadi, chunki global maydonda «biz» va «ular» farqi yaqqolroq seziladi. Xulq-atvor komponenti esa eng zaif himoyalangan: virtual muloqotda andisha, murojaat odobi va hayo me’yorlari, real muhitdagi ijtimoiy nazorat bo‘lmagani uchun, tezroq o‘zgaradi.

Berri modelini raqamli muhitga tatbiq etsak, to‘rt strategiyani quyidagicha izohlash mumkin [2]. Assimilyatsiyada shaxs global kontent va sun’iy intellekt taklif etayotgan andozalarni to‘liq qabul qilib, milliy qadriyatlardan uzoqlashadi. Separatsiyada u global axborotdan o‘zini chegaralab, faqat milliy muhit bilan cheklanadi va zamonaviy imkoniyatlardan to‘liq foydalana olmaydi. Marginallashuvda shaxs har ikki madaniyatdan ham uzilib, barqaror o‘zlikka ega bo‘lmaydi; bu holat psixologik jihatdan eng noqulay hisoblanadi. Integratsiyada esa shaxs milliy o‘zligini saqlagan holda global madaniyat bilan faol muloqotda bo‘ladi. Amaliy jihatdan ta’lim tizimida raqamli savodxonlik bilan birga «madaniy savodxonlik»ni ham shakllantirish muhim. Bunda o‘quvchilar sun’iy intellekt va global kontent javoblaridagi madaniy talqinlarni tanib olishga va ularni tanqidiy baholashga o‘rgatiladi. Shuningdek, milliy tildagi sifatli raqamli kontent va o‘zbek tilini yaxshi tushunadigan sun’iy intellekt yechimlarini yaratish milliy qiyofani raqamli makonda saqlashning muhim sharti hisoblanadi.Ushbu ish nazariy tahlil bilan cheklangan. Uch komponentning o‘zbek yoshlari orasida qanday ifodalanganligini va raqamli faollik bilan bog‘liqligini empirik tadqiqotlar orqali o‘rganish keyingi ilmiy izlanishlarning vazifasidir.

Xulosa. Milliy psixologik qiyofa ma’lum xalq vakillarida tarixan shakllangan, nisbatan barqaror tafakkur, his-tuyg‘u va xulq-atvor xususiyatlari majmuidir. U milliy xarakter, ustanovka tuzilishi, madaniy «men» va milliy-ma’naviy yondashuvlar doirasida ta’riflanadi. Uch komponentli model milliy psixologik qiyofani tahlil qilish uchun eng maqbul nazariy asosdir. Kognitiv komponent milliy o‘zlikni anglash va madaniy tafakkur tarzini, emotsional komponent mansublik hissi va madaniy his-tuyg‘u me’yorlarini, xulq-atvor komponenti esa urf-odat, an’ana va muloqot odobini o‘z ichiga oladi. O‘zbek xalqining milliy psixologik qiyofasida kollektivizm, «o‘zaro bog‘liq men», oila va mahallaga yo‘naltirilganlik, kattalarga hurmat va andisha yetakchi xususiyatlar hisoblanadi.

Raqamli muhitda uch komponent turlicha o‘zgaradi: kognitiv komponent global ta’sirga eng ochiq, emotsional komponent nisbatan barqaror, xulq-atvor komponenti esa virtual muloqotda ijtimoiy nazoratning kamligi sababli tezroq o‘zgaradi. Ta’lim tizimida madaniy savodxonlikni shakllantirish hamda o‘zbek tilidagi sifatli raqamli kontent va sun’iy intellekt yechimlarini yaratish milliy psixologik qiyofani raqamli davrda asrashning muhim shartlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son «“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

2. Berry J.W. Immigration, acculturation, and adaptation // Applied Psychology: An International Review. — 1997. — Vol. 46, No. 1. — P. 5–34.

3. Atari M., Xue M.J., Park P.S., Blasi D.E., Henrich J. Which humans? // PsyArXiv preprint. — 2023. — DOI: 10.31234/osf.io/5b26t.

4. Inkeles A., Levinson D.J. National character: The study of modal personality and sociocultural systems // Lindzey G., Aronson E. (eds.). The Handbook of Social Psychology. — 2nd ed. — Vol. 4. — Reading, MA: Addison-Wesley, 1969. — P. 418–506.

5. Rosenberg M.J., Hovland C.I. Cognitive, affective, and behavioral components of attitudes // Rosenberg M.J., Hovland C.I. et al. (eds.). Attitude Organization and Change. — New Haven: Yale University Press, 1960. — P. 1–14.

6. Markus H.R., Kitayama S. Culture and the self: Implications for cognition, emotion, and motivation // Psychological Review. — 1991. — Vol. 98, No. 2. — P. 224–253.

7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992.